



Innovatsion texnologik topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish pedagogik zaruriyat sifatida.

G'iyosiddinova
Mahmuda Alisher qizi

QDPI o'qituvchi.
giyosiddinovamahmuda@gmail.com

Annatatsiya: Kreativ fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologik topshiriqlarning roli beqiyos bo'lib, ular nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshirishga, balki bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini zamon talablari asosida shakllantirishga xizmat qiladi

Kalit so'zlar: Kreativ, texnologiya, metodika, pedagogik tadqiqotlar, innovatsion texnologiya, yangilik, kompetensiya, topshiriq.

Аннотация: Инновационных технологических заданий в формировании творческого мышления неоценима, они служат не только повышению качества образовательного процесса, но и формированию профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов с учетом требований времени.

Ключевые слова: Творческий, технология, методология, педагогическое исследование, инновационная технология, инновация, компетенция, задача.

Annotation: The role of innovative technological tasks in the formation of creative thinking is invaluable, they serve not only to improve the quality of the educational process, but also to shape the professional training of future primary education teachers based on the requirements of the time.

Key words: Creative, technology, methodology, pedagogical research, innovative technology, innovation, competence, task.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli qarori hamda oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim sohasi oldiga ilg'or xalqaro standartlarga mos, zamonaviy talablarga javob bera oladigan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan. Jumladan, oliy ta'limda uzluksiz ta'lim tamoyillariga asoslangan yondashuv orqali mustaqil fikrlovchi, yangilikka ochiq, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega shaxslarni shakllantirish, ularni kasbiy faoliyatda samarali ishlashga tayyorlash zarurligi alohida qayd etilgan [1].

Bu jarayonda oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya tizimini chuqur modernizatsiyalash, ta'lim sifatini muntazam monitoring qilish, ilg'or texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish va o'quv dasturlarini yangilash orqali bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, innovatsion texnologik topshiriqlardan foydalanish

orqali kreativ fikrlash, mustaqil tahlil qilish, yangicha yondashuvlar ishlab chiqish kabi kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb metodik vazifalardan biridir [2].

Zamonaviy ta'lim oluvchisi endilikda nafaqat bilim egasi, balki muammolarga tizimli yondasha oladigan, turli vaziyatlarda noan'anaviy qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan ijodiy shaxs sifatida tarbiyalanishi talab etiladi. Bu esa, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglarni yangicha metodik tafakkur asosida tayyorlashni, ularning kasbiy shakllanishida kreativlik, tashabbuskorlik va innovatsion faoliyatga tayyorlikni rivojlantirishni taqozo etadi.

Bugungi kun mehnat bozorida yuqori malakali, yangilikka intiluvchi va ijodiy fikrlovchi mutaxassislarga ehtiyoj ortib borayotgan bir sharoitda, innovatsion texnologik topshiriqlar asosida o'qituvchilar tayyorlash ta'limning amaliy yo'naltirilganligini kuchaytiradi. Bu topshiriqlar orqali talabalarning tahliliy fikrlash, o'z mustaqil g'oya va yechimlarini ishlab chiqish, jamoaviy va individual faoliyatga jalb etilish ko'nikmalari shakllanadi.

Zamonaviy ta'lim tizimining tub mohiyati – bu bilimlarni tayyor shaklda berishdan voz kechib, talabani fikrlashga, tahlil qilishga, izlanishga va muammolarga mustaqil yechim topishga yo'naltirishdan iborat. Bunday yondashuv, eng avvalo, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishni talab etadi. Xususan, innovatsion texnologik topshiriqlar asosida tashkil etilgan ta'limiy faoliyat talabani faolligini oshiradi, yangicha fikrlashni, mavjud bilim va tajribalarni amaliyotga moslashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Mazkur yondashuvning tarixiy-madaniy va falsafiy ildizlari turli pedagogik qarashlarda o'z aksini topgan. Masalan, Abu Nasr Forobiy insonning komilligini ilm va aql bilan bog'lagan bo'lsa, Ibn Sino ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchi qalbiga yo'l topa olish qobiliyatini, uni tafakkurga yo'naltirish zarurligini ta'kidlagan. Alisher Navoiy esa bilimni faqat o'zlashtirish emas, balki undan oqilona foydalanishni muhim deb hisoblagan. Abdulla Avloniy tarbiyani shunchaki yordamchi vosita emas, balki jamiyat hayotini belgilovchi hal qiluvchi omil deb baholagan.

Mahmudxo'ja Behbudiy va jadid pedagogikasi vakillari ta'limda milliylik, zamonaviylik va ma'rifatparvarlik tamoyillarini uyg'unlashtirgan holda, talabani ma'naviy yetuk, tafakkuri teran shaxs sifatida tarbiyalashga alohida urg'u bergan. Bu fikrlar zamonaviy pedagogikada kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlar, xususan, texnologik topshiriqlarni ishlab chiqish va joriy etishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, xorijiy pedagogika vakillari – xususan, J. Piyaje tomonidan ilgari surilgan konstruktivistik yondashuvlar, talabani bilim oluvchi emas, balki uni yaratishga faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida talqin qilishi bilan ahamiyatlidir. Bu, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirishda muhim nazariy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bois, zamonaviy ta'limda innovatsion texnologik topshiriqlar orqali ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish, kasbiy mas'uliyat kabi sifatlarni rivojlantirish – pedagogik faoliyatni samarali olib borishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Bunday topshiriqlar ijodiy tafakkurni rag'batlantirish, shaxsiy

bilimni kashf etishga zamin yaratish bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga chuqur va samarali tayyorlash imkonini beradi.

Hozirgi pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida o'qituvchining shaxsiy va kasbiy kompetensiyalari, xususan kreativ fikrlash salohiyati o'qituvchilarning intellektual rivoji va ijtimoiy faolligini belgilovchi ustuvor omillardan biri hisoblanadi. Bu fikr XX asr boshlaridayoq Abdulla Avloniy tomonidan ilgari surilgan. U maktabni bolalarning fikriy salohiyatini shakllantiruvchi asosiy institut, muallimni esa bu jarayonning "fikr tarbiyasiga mas'ul" yetakchisi sifatida talqin etar ekan, o'qituvchining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, keng dunyoqarashi, yangilikka intiluvchanligi va yaratishga moyilligi ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyatini belgilashini e'tirof etadi [17, 304]. Mazkur yondashuv, mohiyatan, o'qituvchi faoliyatiga innovatsion yondashuv nuqtai nazaridan qarashning ilk nazariy ko'rinishidir.

Abdurauf Fitrat ham o'z asarlarida ta'lim-tarbiya masalasini davr talabi darajasiga ko'tarib, an'anaviy qoliplarni yangilash, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotni interaktiv tashkil etish va individual qobiliyatlarni inobatga olgan didaktik yondashuvlarni joriy etish zarurligini asoslab beradi [13, 208]. Fitratning fikricha, pedagog o'z ustida tinimsiz ishlashi, metodik arsenalini yangilashi va o'qitish usullarini talabaning shaxsiy xususiyatlariga moslashtirishi orqali haqiqiy natijaga erishadi hisoblaydi.

Bugungi kunda bu tarixiy-nazariy qarashlar innovatsion texnologik topshiriqlarni ta'lim amaliyotiga integratsiya etish orqali yangi mazmun kasb etmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida loyiha-tadqiqot, muammoli vaziyat, raqamli simulyatsiyalar va STEAM formatidagi topshiriqlarni qo'llash bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- muammoni kognitiv modellashtirish va kreativ yechim ishlab chiqish;
- multimodal axborotni tahlil qilish va innovatsion g'oyaga aylantirish;
- jamoaviy hamkorlikda dizayn-fikrlash siklini bosqichma-bosqich qo'llash;
- ta'lim jarayonini refleksiv baholash va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyasini tuzish.

Shu bois, uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash hamda uning mazmunini innovatsion kompetensiyalar bilan boyitish bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning metodologik negizi hisoblanadi. So'nggi yillardagi milliy pedagogik-psixologik izlanishlar (Azizxo'jayeva, Saidahmedov, Ma'murov va boshqalar) ham ana shu yo'nalishda nazariy konsepsiyalar va amaliy modellarning shakllanayotganini tasdiqlaydi. Demak, Avloniy va Fitratning ilg'or g'oyalari zamonaviy pedagogikada innovatsion texnologik topshiriqlarni markazga qo'ygan, kreativ fikrlashni yanada rag'batlantiruvchi yondashuv sifatida izchil ravishda davom ettirilmoqda.

B.B. Ma'murovning ta'kidicha, zamonaviy oliy pedagogik ta'limda innovatsion texnologik topshiriqlarni qo'llash orqali talaba shaxsini ta'lim jarayonining markaziga joylashtirish tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv, avvalo, bo'lajak pedagoglar uchun kasbiy o'sishning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga zamin yaratadi, ularni o'z ustida mustaqil ishlashga, zamonaviy ta'lim

muammolariga ijodkorlik bilan yondashishga undaydi. Mazkur jarayonda professor-o'qituvchilarning talabalarga nisbatan shaxsiy ishonch bildirishi, o'zaro muloqotni dialog asosida tashkil etishi, ularning fikr erkinligi va dadilligini qo'llab-quvvatlashi muhim rol o'ynaydi [98, 5-b.].

Shunday tarzda tashkil etilgan o'quv muhiti talabalarga kasbiy bilimlarni chuqur anglash, ularni amaliy faoliyatda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish hamda o'z salohiyatlarini maksimal darajada namoyon etishga imkon yaratadi. Bu jarayon natijasida talabalar shaxsida kasbiy faollik, mustaqil fikrlash, dadillik, tashabbuskorlik va intellektual qiziquvchanlik kabi zaruriy sifatlar shakllanadi. Bunday kompetensiyalar esa zamonaviy ta'lim talabalariga javob beruvchi, ijodiy fikrlovchi, muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qila oladigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning zaruriy shartidir.

Bugungi globallashtirish sharoitida davlat va jamiyat bo'lajak pedagoglar oldiga uzluksiz kasbiy rivojlanish vazifasini qo'ymoqda. Bu esa ta'limda innovatsion texnologik topshiriqlar asosida tashkil etilgan o'quv faoliyatini takomillashtirishni talab qiladi. Aynan ana shunday topshiriqlar asosida shakllangan dars jarayonlari shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy-faol munosabatni shakllantirish, kognitiv malakalarni mustahkamlash kabi ko'p qirrali maqsadlarga xizmat qiladi.

Shuningdek, innovatsion topshiriqlar asosida olib borilayotgan ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining individual qobiliyatlarini rivojlantirish, uni kompleks baholash, muammoli vaziyatlar orqali qaror qabul qilishga o'rgatish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, talabaning professional faoliyatini takomillashtirish va unga nisbatan refleksiv munosabatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, innovatsion texnologik topshiriqlarni didaktik vosita sifatida samarali qo'llash, bo'lajak pedagoglarning kreativ salohiyatini oshirishning asosiy pedagogik shartlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Innovatsion texnologik topshiriqlar asosida kreativ fikrlashni rivojlantirish bo'yicha turli olimlarning fikrlarini umumlashtirib yondashuvning pedagogik jarayonni yaxshilashdagi o'rni haqida quyidagicha fikrlarni keltirish mumkin.

Birinchidan, B.B. Ma'murov fikriga ko'ra, innovatsion texnologik topshiriqlarga asoslangan oliy pedagogik ta'limning markazida talabalar shaxsiy rivojlanishi turgan bo'lishi kerak. Ma'murov ta'kidlashicha, bunday jarayonda talaba nafaqat bilimni egallaydi, balki kasbiy rivojlanishning mohiyatini chuqur anglab, o'z o'rni va rolini topadi. Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qituvchi talabalarning o'z fikrlarini ifoda etishiga sharoit yaratadi, bu esa ularning kreativ fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Talabalarning kasbiy rivojlanishi, ularning yangi g'oyalar yaratishga qobiliyatini oshirishda innovatsion texnologiyalar o'zining alohida o'rniga ega.

Vygotskiy fikriga kelsak, u o'qitishda kreativ fikrlashni rivojlantirishni ta'kidlagan. Uning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, odamlarning fikrlash jarayoni jamiyatdagi o'zaro aloqalar orqali rivojlanadi. Innovatsion texnologik topshiriqlar talabalarga interaktiv aloqalar, masalalarni hal etish va kreativ yechimlar izlash orqali o'z fikrlarini kengaytirish imkonini beradi. Vygotskiyning fikricha,

kreativ fikrlashni rivojlantirishning asosiy omili – bu ijtimoiy muloqot va amaliy faoliyatda ko‘rsatilgan yordamlardir.

Howard Gardnerning ko‘p intellektual nazariyasiga ko‘ra, har bir talaba o‘zining kreativ va intellektual qobiliyatlarini turli shakllarda rivojlantirishga ega. Innovatsion texnologik topshiriqlar, shuningdek, talabalarning kognitiv qobiliyatlarini kengaytirish, fikrlarni qayta ishlash va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, Gardner talabalarning ijodiy yondoshuvlarini oshirishda individual yondashuvning ahamiyatini ta’kidlagan. Innovatsion texnologiyalar asosidagi o‘qitish bu jihatdan ham samarali, chunki ular har bir talabaga o‘z imkoniyatlari doirasida o‘rganish va rivojlanish imkonini beradi.

Jon Dewey ta’limning amaliy xususiyatini ta’kidlab, ta’lim jarayonida ijodiy yondoshuv va yangi g‘oyalarni ishlab chiqishni zarur deb hisoblagan. Deweyning ta’limga bo‘lgan yondoshuvi innovatsion texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan o‘qitishda o‘z aksini topadi, chunki u talabalarni muammolarni mustaqil hal qilishga undaydi. Innovatsion texnologik topshiriqlar yordamida talaba amaliyotga asoslangan va ijodiy yondoshuvlarni qo‘llash orqali talabalarda kritik va kreativ fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi.

Ken Robinson esa ta’lim tizimining kreativ fikrlashni rivojlantirishga e’tibor qaratishi zarurligini ta’kidlagan. Uning fikricha, kreativlik nafaqat san’atda, balki barcha sohalarida ham muhim, shuningdek, innovatsion texnologiyalar yordamida ta’limni yangilash va kreativ fikrlashni rivojlantirish mumkin. Robinsonning fikriga ko‘ra, innovatsion texnologiyalar talabalarda yangi yondoshuvlar, yangi yechimlar topishga bo‘lgan qiziqish va intilishlarni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, shuni aytish mumkinki, innovatsion texnologik topshiriqlar nafaqat talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi, balki pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish va ularning yangi pedagogik metodlarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik amaliyotga kirganda, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi interaktiv aloqalar yanada samarali bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida kreativ fikrlashni rivojlantirishni osonlashtiradi. Innovatsion texnologik topshiriqlar asosida kreativ fikrlashni rivojlantirish talabalarga yangicha yondashuvlar va yechimlarni izlash imkoniyatini beradigan samarali metod hisoblanadi. Bu yondashuv ta’lim jarayonining har bir ishtirokchisining kreativ qobiliyatlarini shakllantiradi va talabaning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

Innovatsion texnologik topshiriq — bu o‘quvchilarning yoki talabalar faoliyatini mustaqil va ijodiy yondashuv asosida tashkil etish, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyati, kasbiy yo‘naltirilgan amaliy ko‘nikmalari va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi, zamonaviy raqamli texnologiyalar, interaktiv usullar hamda konstruktiv pedagogik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan didaktik topshiriq turidir. Bunday topshiriqlar o‘quv jarayoniga innovatsion elementlarni tatbiq etish orqali bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, fanlararo bog‘liqlikni anglash, real va shartli muammolarni hal qilishda integrativ yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Ular, avvalo, o‘quvchi (yoki talaba)ning individual

imkoniyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni mustaqil izlanish va tahlil qilish orqali egallashiga, ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda amaliy mahsulot yaratishiga, jamoa ichida hamkorlikda faoliyat yuritishiga, o'z fikrlarini asosli tarzda ifodalash va himoya qilishga yo'naltirilgan.

Innovatsion texnologik topshiriqlarning o'ziga xos jihati shundaki, ular o'quv faoliyatini faqatgina tayyor bilimlarni egallashdan iborat bo'lmay, balki yangi bilim va tajriba hosil qilish, mavjud muammoni tahlil qilish, baholash va taklif ishlab chiqish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Ular o'zining texnologik jihatdan qurollangan, kreativlikni rag'batlantiruvchi va refleksiv yondashuvni shakllantiruvchi xususiyatlari bilan an'anaviy topshiriqlardan farq qiladi. Shuningdek, bunday topshiriqlarni amalga oshirish jarayonida talabalar raqamli platformalar, mobil ilovalar, onlayn hamkorlik vositalari, virtual muhitlar kabi texnologik vositalardan foydalanadilar. Bu esa ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ongli va samarali foydalanish kompetensiyasini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston NMIU, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to’g’risida”gi O’RQ-637-son Qonuni / “Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi”, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi [PQ-2909-sonli qarori](#). Manba: www.gov.uz
- 4 .O'rinova N.M., Kadirova M.R., Djalalov B.B., Baydjanov B.X.. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. Farg'ona: “Poligraf super servis. 2022.
5. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- Toshkent, Moliya, 2003.
6. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.-T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017-yil.
7. Toxtaxodjayeva M.X. “Pedagogika nazariyasi”/ OTM uchun darslik.- T.: “Iqtisod- moliya”, 2010.